

Zarafshon

Fidoyilik – Vatanga xizmat demak!

2024-yil 31-oktabr, payshanba,
126 (24.003)-son

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

www.zarnews.uz https:/www.facebook.com/zarnews.uz @zarnews_uz https:/twitter.com/zarnews_uz

KUN HIKMATI

Haqiqat azaldan dunyo bilan birga bunyod bo‘lgan va hech qachon yo‘qolmaydi

Xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov natijalari e’lon qilindi



Viloyat hududiy saylov komissiyasi matbuot markazida 27-oktabr kuni o‘tkazilgan saylov yakunlariga bag‘ishlangan matbuot anjumani o‘tkazildi.

Bu yil viloyatda Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga saylov o‘tkazuvchi 8 ta bir mandatli saylov okrugi, xalq deputatlari viloyat Kengashiga saylov o‘tkazuvchi 60 ta hamda tuman va shahar Kengashlari uchun 410 ta saylov okrugi tuzilgan edi.

– Saylov kuni viloyat hududidagi 1130 ta saylov uchastkasida mazkur okruglar bo‘yicha deputatlikka nomzodlar va siyosiy partiyalarga ovoz berildi, – dedi viloyat hududiy saylov komissiyasi raisi X.Muhammadiyev. – Ovoz berish jarayonlari soat 8:00 da boshlanib, 20:00 da yakunlandi. Saylovni 100 ga yaqin xalqaro kuzatuvchilar bevosita kuzatib borish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, hududiy saylov komissiyasi tomonidan ro‘yxatga olingan 5 ming 650 nafar siyosiy partiyalar kuzatuvchilari, 1 ming 100 nafardan ortiq fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari kuzatuvchilari saylov uchastkalarida ish olib bordi.

Saylov kuni 1 million 636 ming 873 nafar fuqaro ovoz berishda ishtirok etdi. Bu saylovchilar umumiy sonining 75,9 foizini tashkil etadi. 16-23-oktabr kunlari bo‘lib o‘tgan muddatidan oldin ovoz berish jarayonida viloyat bo‘yicha 181 ming 925 nafar saylovchi ovoz bergan edi.

Ovoz berish natijalariga ko‘ra, xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashiga Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan 16 nafar, O‘zbekiston “Milliy tiklanish” demokratik partiyasidan 14 nafar, O‘zbekiston Ekologik partiyasidan 9 nafar, O‘zbekiston Xalq demokratik partiyasidan 10 nafar, O‘zbekiston “Adolat” sotsial-demokratik partiyasidan 11 nafar deputat saylandi.

Saylov kodeksining 97-moddasida mahalliy Kengashga o‘tkazilgan saylov yakunlari to‘g‘risidagi qaror tegishli saylov komissiyasi tomonidan saylovdan keyin o‘n kundan kechiktirmay qabul qilinishi va matbuotda e’lon qilinishi belgilangan.

Viloyat hududiy saylov komissiyasi matbuot markazi.



Nara prefekturasi bilan hamkorlik mustahkamlanadi

Yaponiyaning Nara prefekturasi gubernatori Makoto Yamashita boshchiligidagi delegatsiya kecha viloyatimizga tashrif buyurdi.

Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov Nara prefekturasi gubernatorini Samarqandga tashrifi bilan qutlab, hududlar o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni yanada mustahkamlash zarurligini qayd etdi.

O‘z navbatida Makoto Yamashita Nara prefekturasi Samarqand bilan turli sohalarda hamkorlik qilishga tayyorligini bildirib, sanoat, kimyo, farmatsevtika, zamonaviy axborot texnologiyalari bo‘yicha hamkorlik istiqbollariga e’tibor qaratdi.

Shuningdek, tomonlar turizm sohasida aloqalarni kengaytirish, ikki hudud tadbirkorlari ishtirokida biznes-forumlar o‘tkazish va hamkorlikda yirik loyihalarni amalga oshirish zarurligini ta’kidladilar.

INDALLOSINI AYTGANDA...

Zuhriddin ISOMIDDINOV, adabiyotshunos olim:

– Qurayotgan imoratini, yetib borar yo‘lini o‘ylagan kishigina o‘sib yuksaladi.



31-OKTABRdan

1 USD – 12 774,34 so‘m (–10,63),

1 EUR – 13 848,66 so‘m (+17,88),

1 RUB – 132,17 so‘m (+0,72)

etib belgilandi.

“YASHIL MAKON”

MAVSUMIY TADBIR EMAS, EZGU TASHABBUS BO‘LISHI LOZIM

Prezidentimiz shu yilning 21-oktabr kuni “Yashil makon” umummilliy loyihasi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishda mamlakatimizda har yili 200 million tup daraxt va buta ko‘chatlari ekilib, yashillikni 2030-yilgacha 30 foizga yetkazish bo‘yicha marra olinganini ta’kidladi.



Joriy yil bahorda 138 million dona ko‘chat ekilgani, yil boshidan 10 ming gektardan ziyod “yashil belbog‘”, 257 ta vazirlik va hokimlik bog‘lari barpo qilingani qayd etildi.

O‘zbekistonning bu boradagi ishlarini Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi, Cho‘llanishga qarshi kurashish konvensiyasi ijroiya organi alohida e’tirof etdi.

Yig‘ilishda yashillik darajasini oshirish bo‘yicha islohotlarni ko‘p rahbarlar tushunib yetmayotgani aytib o‘tildi. Bahor mavsumida 28 ta tuman daraxt ekishda rejani bajarmagani tanqid qilindi. Iqlim sharoitini hisobga olmasdan, suv yo‘q joylarga daraxt ekilgani uchun minglab tup daraxt ko‘karmagan. Masalan, sug‘orish tizimi yo‘q joyga Samarqandda 96 ming ko‘chat ekilgan. Hisobotga qo‘shib yozish eng ko‘p Buxoro, Toshkent, Andijon, Surxondaryo, Samarqand viloyatlarida va Toshkent shahrida qayd etilgan.

"YASHIL MAKON" NIMA UCHUN BUNCHALAR DOLZARB

Bir gektar maydondagi daraxt bir kecha-kunduzda 220-275 kilogramgacha karbonat angidrid gazini yutib, 180-215 kilogramm kislorod ajratadi. Bu miqdor o‘rtacha 500 kishini kun davomida kislorod bilan ta’minlashga yetadi.

Daraxtlar faqatgina kislorod manbai emas. Daraxt va butalar shovqinni yutib, havodagi changni ham ushlab qoladi. Shuningdek, daraxtlar atrofning sanitariya-gigiyena holatini yaxshilaydi, kuchli shamollarni qaytaradi, o‘zidan zararli mikroblarni o‘ldiruvchi fitonsidlar ishlab chiqaradi.

Bir daraxt turining yo‘qolishi 30 turdagi hayvon turlarining yo‘qolib ketishiga sababchi bo‘ladi. Daraxtlar yerni eroziyadan saqlaydi va tuproqni mustahkam ushlaydi. Ularning ildizlari suvni filtrlab, sifatini yaxshilaydi.

Shu va boshqa jihatlardan ko‘chat ekish, yashil hududlarni ko‘paytirishning ahamiyati beqiyos. Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yurtimizning barcha hududlarida bir necha yildan buyon “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida ko‘chat ekish ishlari olib borilmoqda. Lekin ko‘chat ekishni hisobot uchun o‘tkazayotgan mas’ullar va moratoriyga ham qaramasdan daraxtlarni kesish holatlari uchrab turibdi.

TO‘RT YILDA VILOYATDA 66 MILLION TUP KO‘CHAT EKILGAN(MI?)

2021-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida respublikamiz bo‘ylab 200 million tup ko‘chat ekish va bu bilan joylardagi yashil hududlarni 8 foizdan 30 foizga yetkazish rajalashtirilgandi. Viloyatimizda o‘sha yilda loyiha doirasida 16 million tup mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekilgan. 2022-yilda “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida viloyatimizda 16 million 388 ming tup mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ekilib, har bir shahar va tumanda 84 gektar maydonda “Yashil bog‘” barpo etildi. Yana “Hokimlik bog‘i”, “Yangi O‘zbekiston bog‘i” “Yashil jamoat parklari” ham tashkil etildi.

Viloyat ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari Jamshid Rabbimov viloyatda ko‘kalamzorlashtirish hududlarida 50 kilometrdan ziyod sug‘orish tarmoqlari qazilishi va 30 ta yer ostidan suv chiqarish quduqlari qayta tiklanishini bildirgandi. Shuningdek, shaharlar va tumanlar obodonlashtirish boshqarmalariga 6,95 milliard so‘m mablag‘ yo‘naltirib, respublika va mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan ko‘kalamzorlashtirish ishlarida foydalaniladigan 8 ta maxsus texnika xarid qilinishini aytgandi. Reja ijrosiga ko‘ra, viloyatimizdagi 18 foizli ko‘kalamzorlashtirish darajasi yaqin orada 30 foizga yetkazilishi rejalashtirilgan. Hisobotlarda keltirilishicha, o‘tgan yil bahor va kuz faslida 17 million tup ko‘chat ekilgan. Bu yilgi rejalarni ham qo‘shadigan bo‘lsak, viloyatimizda to‘rt yilda 66 million tupdan ortiq ko‘chat ekilgan. Lekin ko‘chat ekish ko‘zlangan maqsadning bir qisminigina tashkil etadi. Rejaga ko‘ra, ko‘chatlar asosan fermer xo‘jaliklari, klasterlarning dala chetlaridagi ihota maydonlar, obodonlashtirish boshqarmalari, o‘rmon fond yerlari, avtomobil va temiryo‘l, daryo, kanal, ariq-zovur bo‘ylari, ta’lim, tibbiyot muassasalari tasarrufidagi bo‘sh maydonlarga ekilmoqda. Endi o‘ylab ko‘raylik, har yili yuqorida sanab o‘tilgan subyektlarning shuncha ortiqcha va bo‘sh qolgan maydoni bormi, agar bo‘sh turgan bo‘lsa, o‘zlari yerdan unumli foydalanmaydimi, manfaatdor bo‘lmaydimi?

Endi oddiygina hisoblab ko‘rsak. To‘rt yilda birgina viloyatimiz bo‘yicha 66 million tupdan ortiq ko‘chat ekilgan. Mas’ullarning ma’lumotlaridan kelib chiqadigan bo‘lsak, sug‘orish tizimida ham muammo bo‘lmasligi aytilgan. Lekin asosan yo‘l bo‘ylari, dala chetlariga ekilayotgan 66 million tup ko‘chat qani? Yana bir muhim jihat. Viloyatda shu sohaga ixtisoslashgan bir nechta tashkilot, olimlar mehnat qilishadi. Bir necha yil davomida ulardan birortasi qaysi tumanga qanday turdagi mevali yoki manzarali ko‘chat mos kelishi to‘g‘risida ma’lumotlar bermadi. Natijada bo‘sh maydonga to‘g‘ri kelgan ko‘chat ekildi, lekin barchasi birdek ko‘karmadi. Yangilik sifatida xorijdan valyuta hisobiga keltirilayotgan ko‘chatlarning aksariyati iqlimga mos kelmaganligi uchun qurib qolyapti. Ularni mahalliy sharoitga moslashtirish borasida ham biror ma’lumot topilmaydi. Viloyatning tumanlari iqlim sharoiti bir-biridan farq qiladi. Bir hududda lalmi maydonga, boshqasida suvsizlikka va shamolga chidamli ko‘chatlar ekish lozim. Bizda bo‘lsa, barchasiga birdek shumtol, katalpa, lola daraxti, pavloniya, archa, qrim qarag‘ayi, yapon saforasi kabi daraxt ko‘chatlari ekilmoqda. Ular qatorida iqlim sharoitimizga mos, ko‘p yillar davomida yaxshi o‘sadigan chinor, eman, kashtan, zarang, tut kabi daraxt nihollari ko‘proq ekish foydali emasmi?

“JURNALISTLAR BOG‘I” HAM QOG‘OZDA QOLDI

Yil boshida viloyatimizda faoliyat ko‘rsatayotgan ommaviy axborot vositalari xodimlari va ijtimoiy tarmoqlar faollari “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida “Jurnalistlar bog‘i” yaratishdek xayrli ishni boshlagan edi. Buning uchun Samarqand tumani hokimligi Ohalik massivida 1 gektarga yaqin yer maydoni ajratgandi va yangi sharoitni inobatga olib, tuman hududini ko‘kalamzorlashtirish va yanada obodonlashtirish uchun barcha imkoniyatlar ishga solinishini ta’kidlagandi.

Ajratilgan yer maydoni tog‘ etagida joylashgan va toshloq bo‘lganligi bois bu yerga katalpa, shumtol va qayrag‘och kabi 500 tupdan ortiq manzarali daraxt ko‘chati ekildi. Ko‘chatlar ekib bo‘lingach, jurnalistlar bu bog‘ni sug‘orish qanday yo‘lga qo‘yilishi bo‘yicha xavotir bildirishdi. Bunga javoban hokimlik mutasaddilari tez kunlarda bog‘ yaqinida quduq qazilib, ekilgan ko‘chatlarni tomchilatib sug‘orish tizimi joriy etilishini aytgandi.

Ammo amalda bunday bo‘lmadi. Jurnalistlar tuman hokimligi va ekologiya boshqarmasi ko‘magida yozda 5-6 marta ko‘chatlarni ko‘chma suv yetkazish mashinalari orqali va ikki marta qo‘lda sug‘ordi. Biroq ko‘chatlarning katta qismi sug‘orish tizimi yo‘qligi bois qurib qoldi.

KO‘CHAT EKISH BOBOLARDAN MEROS

Aslida ko‘chat ekish ota-bobolarimizdan qolgan an’ana. Qaysi uyda chaqaloq tug‘ilsa, yaxshi kun, to‘y-tomosha bo‘lsa, ko‘chat ekiladi. Yangi tug‘ilgan chaqaloq sharafiga ekilgan teraklar kelajakda uy qurishga ishlatilsa, yong‘oq va tut daraxtlari mevasi, soyasida bolalar o‘ynashi va asosiysi, ko‘p miqdorda kislorod chiqarishi uchun ekilgan. Bobolarimiz ko‘chat ekishda yerni 40-60 santimetrgacha kovlab, chuqurga bir-ikki hovuchdan arpa va bug‘doy tashlab, keyin ko‘chat ekishgan. Chunki arpa va bug‘doy tarkibida fosfor bo‘lib, u ko‘chatning tomir otib ko‘karib ketishiga yordam beradi. Keyin ko‘chatni nihollar uyquga ketish oldidan asosan kuz faslida yoki erta bahorda nihollar uyg‘onmasdan turib ekishgan. Chunki kuzda ekilgan nihol qish mavsumida yerga tez moslashishi, ildizning qulay o‘rnashuvi tufayli bahorga borib, bir yil avvalgi ko‘chatlar qatoriga yetib olib, tez o‘sadi. Shu bois kuzda ekilgan ko‘chatda suvsizlikdan qurib qolish, tomirlarning shikastlanishi kabi muammolar kam uchraydi.

“Yashil makon” umummilliy loyihasining aynan 25-oktabrdan 1-dekabrgacha o‘tkazilishi ham bejiz emas. Chunki shu muddatdan boshlab ayrim turdagi daraxtlar uyquga ketish fazasiga o‘tadi, dekabrda yerning yuzasi muzlashi ehtimoli tufayli ko‘chat ekish samarasiz bo‘ladi. Ammo ayrim hududlarda tezkor hisobot uchun bargi yashnab turgan nihollar ham ko‘chat ekish qoidalariga rioya qilinmasdan ekildi. Bu esa ko‘chatning ko‘karishi ahamiyatsiz, ekilishi muhimligini anglatmayaptimi?

Ochiq gap

(Davomi 3-sahifada) »»



Konstitutsiyamizning yangi tahriridagi mamlakatimizda tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish, uni himoya qilish borasida avval bo‘lmagan 4 ta modda qo‘shildi. Shuningdek, kelgusi 7 yilda mamlakatimizning asosiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilab beruvchi “O‘zbekiston-2023” strategiyasida 5 ta ustuvor yo‘nalish doirasida 100 ta maqsadga erishish belgilandi. Barqaror iqtisodiy o‘sish orqali aholi farovonligini ta’minlash yo‘nalishida eksport hajmini 2 baravarga oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, tayyor va yarim tayyor mahsulotlar eksporti hajmini 3,3 baravarga ko‘paytirish vazifalari bor. Yana dunyoning 50 ta nufuzli brendlari bilan maxsus eksport zonalarini tashkil qilish, tadbirkorlik subyektlarining qonuniy huquqlari himoyasiga qaratilgan 17 turdagi davlat monopoliyasini bekor qilish rejalari ham o‘rin olgan. Kichik va o‘rta biznesning xalqaro bozorlarga chiqishiga imkoniyatlarni kengaytirish, biznes uchun qo‘shilgan qiymat va foyda soliqlari yil davomida oshirilmasligi kafolatlangan. Rasmiy sektor-nolegal faoliyatdan afzal va manfaatli bo‘lishi uchun zarur sharoitlarni yaratish, tadbirkorlarga barcha xizmatlarni “Yagona darcha” tamoyili asosida ko‘rsatish nazarda tutilgan. Bu rejalarning ijrosi tadbirkorlikni rivojlantirish bilan bevosita bog‘liq.

Inson hayoti va sog‘lig‘iga yuqori xavf soluvchi omillar reestri joriy qilinadi

Joriy yil 20-avgust kuni davlatimiz rahbarining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqoti o‘tkazildi. Unda kelib tushgan 12 mingdan ortiq murojaatlar yechimi bo‘yicha 30-avgustda Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tadbirkorlar bilan to‘rtinchi ochiq muloqotida belgilangan vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi.

Unga ko‘ra, 56 ta qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish, (shundan 17 tasi bevosita Savdo-sanoat palatasining ishtirokida) va ijrosini ta’minlash belgilandi. Shuningdek, 28 ta yo‘nalishda amaliy tadbirlar rejasi ishlab chiqilib, ularning 10 tasida palataning ishtiroki belgilab qo‘yilgan.

2024-yil 1-noyabrdan kichik va o‘rta tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlashga barcha tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlari jalb qilinadi. Prezidentning 2023 yil 14 sentyabrdagi “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga asosan amalga oshirilayotgan “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturi doirasida kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladigan 100 million so‘mgacha garovsiz mikrokreditlar qayta moliyalashtiriladi. Ular bo‘yicha kafilliklar taqdim etish tartibini saqlab qolgan holda tijorat banklari va mikromoliya tashkilotlariga o‘z resurslari hisobiga mikrokreditlarni 300 million so‘mgacha oshirishga ruxsat etilishi belgilangan.

Farmon bilan eksport operatsiyalari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplashda soliq to‘lovchilardan respublika bojxona hududidan o‘tkazish punktida joylashgan bojxona organining tovarlar belgilangan mamlakatga jo‘natilganligini tasdiqlovchi belgisi qo‘yiladi. Bu tovarga ilova qilinadigan hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish talab etilmaydi.

Bojxona organlari tomonidan real vaqt rejimida elektron axborot almashinuvi vositasida soliq organlariga tovarlar bojxona chegarasini kesib o‘tganligi to‘g‘risida taqdim etilgan ma’lumotlar tovarlar eksport qilinganligini tasdiqlash uchun asos bo‘ladi. Mazkur tartib ushbu farmon kuchga kirgunga qadar bo‘lgan davrdagi eksport operatsiyalari bo‘yicha qo‘shilgan qiymat solig‘i summasi o‘rnini qoplash uchun taqdim etilgan arizalarga nisbatan ham tatbiq etiladi. 2025-yildan 2028-yil 1-yanvargacha umumiy ovqatlanish korxonalariga foyda solig‘i stavkasi 50 foizga kamaytirilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, 2024-yil 1-oktabrdan turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini, 2025-yil 1-yanvardan umumiy ovqatlanish xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga 2028-yil 1-yanvargacha har oyning 25-sanasigacha to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining bir qismini respublika budjetidan qaytarish tizimi joriy etilishi ko‘rsatilgan. Ya’ni, oylik tovar aylanmasining naqd pulsiz (to‘lov terminallari yoki mobil to‘lovlar orqali) qismi, 60 foizdan oshgan umumiy ovqatlanish korxonalariga - budjetga to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 40 foizi, 60 foizdan kam umumiy ovqatlanish korxonalariga - budjetga to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foizi va turoperatorlik va mehmonxona xizmatlarini ko‘rsatuvchi tadbirkorlik subyektlariga - budjetga to‘langan qo‘shilgan qiymat solig‘ining 20 foizi qaytarilishi belgilangan.

2025-yil 1-yanvardan davlat xaridlarini (korporativ buyurtmachilarning tijorat maqsadlarida amalga oshiriladigan davlat xaridlaridan tashqari) amalga oshirishda tovarning o‘zlashtirish darajasidan kelib chiqib, ishlab chiqaruvchilarni rag‘batlantirish tizimi yo‘lga qo‘yiladi. Bunda mazkur tizim elektron kooperatsiya portali bilan bir qatorda davlat xaridlari bo‘yicha maxsus axborot portali vositasida barcha davlat xaridlari elektron tizimlarida joriy etiladi.

Eng asosiysi, 2024-yil 1-noyabrdan barcha uchun ochiq holatda yuritiladigan Inson hayoti va sog‘lig‘iga yuqori xavf soluvchi omillar reestri joriy qilinadi. 2025-yil 1-yanvardan nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatini to‘xtatib turishga faqatgina Reestrga kiritilgan omillar asosida yo‘l qo‘yiladi. Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini sud tartibi yoki qonunda belgilanadigan asoslar bo‘yicha to‘xtatib turish holatlari bundan mustasno.

2025-yil 1-yanvardan nazorat qiluvchi organlar tomonidan tadbirkorlik subyektlari faoliyatida huquqbuzarlik sodir etish xavfini aniqlash bo‘yicha “Xavfni tahlil qilish” elektron tizimi joriy etiladi.

E.RO‘ZIYEV,
Savdo-sanoat palatasi viloyat hududiy boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari.

Kambag‘allikdan farovonlik sari

“Beriladigani berib bo‘lindi,

ENDI MEHNAT QILISHGA O‘RGATAMIZ”

Bulung‘ur tumanidagi Gulzor mahallasida istiqomat qiluvchi beshta kam ta’minlangan oila tuman hokimining birinchi o‘rinbosari Sherzod Ibragimovga biriktirilgan. O‘tgan vaqtda mas’ul ularning har biri bilan uchrashib, oilasidagi muhit, uy va hovli-joyining ahvolini o‘rgangan. Biroq biz borib, fuqarolar bilan muloqot qilganimizda, hokim o‘rinbosari ularga na pul va na boshqa moddiy yordamlar berganligi ma’lum bo‘ldi. Xo‘sh, buning sababi nima? Nega kambag‘allarga “yordam” berilmayapti?



Tumandagi 55 mahallada 201 ming nafar aholi istiqomat qiladi. Shundan 505 oiladagi 2107 nafar fuqaro kambag‘al deb topilgan hamda Prezidentning “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida belgilangan vazifalar ijrosi doirasida 101 nafar mas’ulga 5 tadan biriktirgan. Ularning 6 nafari tumanning muvaffaqiyatli tadbirkori, 4 nafari katta hayotiy tajribaga ega nuroniy, qolgani esa davlat idoralari rahbarlari hisoblanadi.

— Biriktirilgan mas’ullarning vazifasi oilalarning kambag‘allik holatiga tushish sabablarini o‘rganib, muammolarni bartaraf qilish, - deydi Sherzod Ibragimov. – Shuningdek, biz mutaxassislarni jalb qilgan holda oilalarning o‘z tomorqasi imkoniyatlaridan samarali foydalanishi, tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yishi hamda oila a’zolarining, ayniqsa, xotin-qizlarning kasb-hunar va xorijiy tilni o‘rganishi, ishga joylashishiga ko‘maklashishimiz kerak. Ko‘pchilik buni tushunmayapti va bizga biriktirilgan rahbarlar moddiy ta’minotimizga ham mas’ul deb o‘ylayapti. Shu vaqtgacha kam ta’minlanganlarga barcha turdagi moddiy yordamlarni berib bo‘ldik, natija o‘zini oqlamadi. Endi boqimandalikni yo‘qotishimiz, fuqarolarni ishlab, mustaqil pul topishga o‘rgatishimiz kerak. Ayni maqsadda ishsizlarni ishga joylashtirish uchun tumandagi 8 ta yirik tadbirkorlik subyekti bilan kelishuvga erishdik, hunar o‘rganaman, deganlar 3-6 oylik kasbga o‘rgatish kurslariga yo‘naltirilyapti.

Tumandagi har bir mahallada oilalarni kambag‘allikdan chiqarish bo‘yicha individual reja ishlab chiqilgan. Unda oilaga ijtimoiy xizmat va yordam ko‘rsatish, sog‘liqni saqlash, uy-joy, bandlik, ta’lim, hatto xulq-atvor yo‘nalishlari ham qamrab olingan. Mazkur rejalarning ijrosi oilalarga biriktirilgan mas’ullar tomonidan tahlil qilib borilishi belgilangan.

— O‘rganish maqsadida ko‘p oilalarga kirdik, - deydi Sherzod Ibragimov. – Kambag‘al deyilayotganlarning aksariyatida 20-25 sotixdan bo‘sh yotgan hovli bor. U yerga faqat kam daromadli beda yoki jo‘xori ekib olingan. To‘qson bosti ekkanlar, issiqxona tashkil qilganlar juda kam. Holbuki, yerdan unumli foydalanilganda, hech kim kambag‘al bo‘lmaydi. Lekin bu endi yerga ekinni biz ekib beramiz, hosilini ular oladi, degani emas. Biz faqat jarayonga mutaxassislarni jalb qilib, ularga nima ekish, qanday parvarishlashni o‘rgatishimiz mumkin. Mehnat qilgan yaxshi yashaydi. Ijtimoiy shartnoma shartlarini bajarmay, bersang yeymang, deb yotadiganlarga yordam berilmaydi. Subsidiya boqimandalarni ko‘paytiradi, kredit esa kambag‘alni yanada faqir, qarzdor qiladi.

Gulzor mahallasida istiqomat qiluvchi Sarvinoz Sattorova tikuvchilik bilan shug‘ullanadi. Oila boshi shu kungacha mavsumiy ishlar bilan band bo‘lgan, yaqinda ishlash uchun xorijga ketibdi. Uyda 3 nafar farzandi bilan qolgan ona hunari ortidan ro‘zg‘or tebratmoqda.

— Uyimizga hokim o‘rinbosari bir necha marotaba keldi, - deydi Sarvinoz Sattorova. – Oxirgi kelganida kitoblar sovg‘a qildi. Daromadimiz, yashash tarzimizga qiziqdi. Tadbirkorlikni yo‘lga qo‘yish, yerdan unumli foydalanish bo‘yicha maslahatlar berdi. Erim qaytib kelsa, bu imkoniyatlardan, albatta, foydalanamiz.

Mas’ullar fuqaro va uning eriga 3 million so‘m atrofidagi maoshli ish taklif qilyapti. Farzandlarini maktabgacha ta’lim tashkilotiga joylashtirish bo‘yicha ko‘mak beriladi. Uyidan chiqmay dehqonchilik yoki hunarmandchilik qilib, yaxshi daromad qilish ham o‘rgatiladi. Lekin tekinga hech nima berilmaydi.

Sherzod Ibragimovga ko‘ra, kambag‘al oilalar bilan yaqindan tanishish davomida asl sharotini yashirib, Ijtimoiy himoya yagona reestriga kirib olgan, amalda esa mashinasi va ikki qavatli imorati bor fuqarolar ham aniqlanmoqda. Ular hech bir xijolatsiz haqiqiy ehtiyojmandlarning haqiga ko‘z olaytiryapti. Eng achinarlisi, shundaylar orasida davlat xizmatchilari ham bor ekan. Ma’lumotga ko‘ra, sentabr oyida tumandan 6088 ta oila tegishli reestrga kiritilgan bo‘lib, dastlabki o‘rganishlar xulosasiga muvofiq, 1121 ta oila undan chiqarilgan. O‘rganish ishlari davom etyapti.

Asqar BAROTOV.

Dolzarb mavzu

O‘zboshimchalik bilan egallangan yer maydonlari qanday shartlarda e’tirof etiladi?

O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yerlar va u yerda qurilgan obyektlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish, ya’ni qonuniylashtirish ko‘pchilikni qiynayotgan muammolardan biri edi. Davlatimiz rahbarining 2018-yil 20-apreldagi farmoni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 21-iyundagi qaroriga asosan, o‘zboshimchalik bilan qurilgan imoratlarga nisbatan mulk huquqini e’tirof etish bo‘yicha bir martalik umumdavlat aksiyasi o‘tkazilgandi. Mazkur aksiyalarda viloyat bo‘yicha 85 mingdan ortiq ariza kelib tushgan bo‘lib, ularning 40 mingdan ortig‘iga ijobiy xulosa berilgan. Mazkur imkoniyatdan foydalana olmagan fuqarolar yana shunday yengillik berilishini kutishayotgandi. Bu masalaga yechim sifatida 2024-yil 5-avgustda “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.

Viloyatimizning tuman-shaharlarida mazkur qonunning mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan seminarlar o‘tkazilmoqda. Unda Kadastr agentligi mas’ullari, viloyatdagi soha idoralari rahbar va mutaxassislari ishtirok etmoqda.

- Hozirgi kunda huquqiy hujjatlari yo‘q yoki to‘liq bo‘lmagan, yer uchastkasidan uzoq yillar davomida foydalanib kelayotgan, yerga bo‘lgan huquqlarni rasmiylashtirish masalasi yer egasiga bog‘liq bo‘lmagan sabablarga ko‘ra oxiriga yetmagan umumiy maydoni 493 ming gektar 3,8 milliondan ortiq yer uchastkalari mavjud, - deydi Kadastr agentligi boshqarma bo‘lim boshlig‘i Bahodir Madiyarov. - Amaldagi qonunchilikda ushbu yerlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish uchun huquqiy asos ham, vakolatli organ ham belgilanmagan. Shu bois mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazishning shu kabi qonuniy yechimlari qo‘llaniladi. Hozirgacha yurtimizda huquqlarni e’tirof etish masalasida 5 marta “aksiya” e’lon qilingan. Ularda hammasi bo‘lib 1 million 338 mingta o‘zboshimchalik bilan qurilgan uy hujjatlashtirilgan.

2024-yil 5-avgustda qabul qilingan, 8 -noyabrdan kuchga kiradigan va 2028-yil 1-yanvargacha amal qilinadigan qonunga ko‘ra, 2018-yil 1-maygacha o‘zboshimchalik bilan egallagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlar, “bir martalik aksiya” doirasida huquqlarni e’tirof etish oxiriga yetmagan yer uchastkasi hamda unda qurilgan bino va inshootlarga nisbatan huquqlar e’tirof etiladi. Shuningdek, 2021-yil 8-iyunga (hokimlarning yer berish vakolati bekor qilinguniga) qadar tuman (shahar) hokimlari qarori bilan ajratilgan, lekin viloyat hokimi yoki xalq deputatlari Kengashi tomonidan tasdiqlanmagan yer uchastkalari, davlat orderi bilan xususiylashtirilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkasi, hokim qarori bilan mulk huquqi e’tirof etilgan binolar va uylar egallagan yer uchastkalari ham e’tirof etiladi. Bunda, ijara muddati yakka tartibdagi uy-joylar egallagan yer uchastkalari uchun to‘qson to‘qqiz yil, boshqa yer uchastkalari uchun qirq to‘qqiz yil etib belgilanmoqda.



Huquqlarni e’tirof etish uchun yer uchastkasi boshqa shaxsga ajratilmagan yoki auksionga chiqarilmagan nizoli yer bo‘lmagan, soliqlardan qarzdorligi yo‘q, muhofaza hududi, sug‘oriladigan yerda joylashmagan va boshqa shartlarga mos bo‘lishi talab etiladi.

Qonunga ko‘ra, yer maydoni 1998-yil 1-iyulgacha egallangan bo‘lsa 0,24 gektargacha, 1998-yil 1-iyuldan 2018-yil 1-maygacha egallangan bo‘lsa, Toshkent, Nukus shaharlari hamda viloyat markazlarida 0,06 gektar, qolgan hududlarda 0,12 gektardan oshmagan hajmda bo‘lishi belgilangan. Ushbu hajmdan ortiqcha yerlar, agar nizo bo‘lmasa, dehqon xo‘jaligi yoki tomorqa xo‘jaligi yuritish uchun rasmiylashtirib beriladi.

Ushbu qonunning avvalgi “aksiya”dan farqi bunda fuqaro uy-joyni e’tirof etish yuzasidan murojaat qilmaydi, balki hududlardagi kadastr idorasi mutaxassislari tomonidan mahallalar to‘liq xatlovdan o‘tkaziladi va ma’lumotlar etirof.kadastr.uz ochiq saytiga joylashtiradi. Bu ma’lumotlar 18 ta vakolatli idora tomonidan ikki oy davomida o‘rganilib, xulosa beriladi.

Tushuntirilishicha, qonunga alohida nizom ishlab chiqilmaydi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri tatbiq etiladi. Biroq mutaxassislar avvalgi “aksiya”da yo‘l qo‘yilgan xatolar, kuzatilgan kamchiliklar haqida fikr bildirib, ularning yechimi bo‘yicha izoh so‘rashdi. Yana bir masala – tuman va shaharlardagi kadastr idoralarida 2-3 nafar xodim ishlasa, ular bitta mahallani to‘liq xatlovdan o‘tkazishi uchun qancha vaqt talab etiladi? Vaholanki, qonunda o‘zboshimchalik bilan egallangan yerlar uchun huquqni e’tirof etish 2028-yil 1-yanvargacha etib belgilangan. Bunda qonun ijrosiga yuzaki qarash shakllanib ketmaydimi?

Hozircha bu savollar ochiq qoldi.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.

“YASHIL MAKON”

MAVSUMIY TADBIR EMAS, EZGU TASHABBUS BO‘LISHI LOZIM

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

DARAXTLARNING RO‘YXATINI TUZISH YILLAR DAVOMIDA TUGAMAYAPTI

Nafaqat yangi ekilgan ko‘chatlar, balki ko‘p yillik daraxtlar, 100 yoshdan oshgan noyob daraxtlar hisobi yuritilmayapti. Soha mas’ullari barcha turdagi daraxtlar, ayniqsa, 100 yoshdan oshgan daraxtlarning alohida ro‘yxati shakllantirilayotganligini aytganiga ham bir necha yil bo‘lsa-da, hamon bu jarayon tugallangan emas. Nyu-Yorkda har bir daraxt uchun personal kartochka tayyorlanar ekan va u orqali daraxt to‘la nazorat qilinarkan. Daraxtlarning barchasi xaritaga kiritilgan va ular Nyu-York budjetini yiliga 11 million dollarga tejaydi.

Afsuski, bizda hamon daraxtlar, umuman, tabiatga nisbatan e’tibor yomonligicha qolmoqda. Masalan, biror joyda daraxt kesgan qonunbuzarning kesilgan daraxt o‘rniga 10 yoki 100 tup nihol ekkanini ko‘rmaymiz, faqat arzimas jarima solingani haqida xabar beriladi. Bu ham aslida ekologiyaga e’tiborsizlikning mevasi hisoblanadi.

BAHORDA EKILGAN DEYARLI 100 MING TUP KO‘CHAT QURIB QOLGAN

Hafta avvalida viloyat hokimligida o‘tkazilgan muhokamada “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 2024-yil bahor mavsumida ko‘chat ekish ishlarida yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar tanqid qilindi.

- Viloyat hududida 2024-yil bahor mavsumida “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida 11 million 619 ming tup ko‘chat ekilib, reja 114 foizga bajarilgan, - dedi E.Turdimov. - Loyiha doirasida bahor mavsumida 96,4 ming tup ko‘chat sug‘orish tizimi mavjud bo‘lmagan maydonlarda ekilgan. Sug‘orish tizimining tashkil etilmaganligi va parvarish ishlari amalga oshirilmaganligi sababli ekilgan ko‘chatlarning 200 mingdan ziyodi qurib qolgan. Jumladan, Samarqand va Qo‘shrabot tumanlarida 20 ming, Payariq va Bulung‘ur tumanlarida 19 ming, Urgut va Nurobod tumanlarida 18 ming, Ishtixon, Kattaqo‘rg‘on va Jomboy tumanlarida 15 ming tup ko‘chat ko‘karmagan. “Yashilmakon.eco” elektron platformasiga ko‘rsatkichlar kiritilishida esa ko‘zbo‘yamachilikka yo‘l qo‘yilgan.

Bahor mavsumida viloyatda 50 ming tup, shundan, Ishtixonda 39 ming, Payariqda 3800, Qo‘shrabotda 3700, Nurobodda 1500 tup ko‘chat platformaga qo‘shib yozilgan hamda ko‘rsatkichlar sun’iy oshirib ko‘rsatilgan.

Atrof-muhitga ta’sir xavfi yuqori I-II toifadagi korxonalar tomonidan “Yashil belbog‘”lar barpo etish ishlari ham o‘z holiga tashlab qo‘yilgan. Reja Kattaqo‘rg‘on tumanida 69, Paxtachida 53, Bulung‘urda 27 foizga bajarilgan bo‘lsada, Ishtixon tumanida mutlaqo bajarilmagan.

Ko‘chat ekish ishlari joyida o‘rganilganda aksariyat ko‘chatlar faqat hisobot uchun, nomigagina ekilganligi hamda ularni parvarishlash tizimi tashkil etilmaganligi oydinlashdi.

Jumladan, Payariq tumani Xalqobod va Tomoyrot mahallalarida tashkil etilgan erkin iqtisodiy zonaga kirish qismida tuman favqulodda vaziyatlar bo‘limi va 3-son kasb-hunar maktabi tomonidan ekilgan ming tupdan ortiq mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari ko‘karmagan.

Nurobod tumani markazidagi 4R-53 avtomobil yo‘li yoqasida tuman hokimligi va tuman tashkilotlari tomonidan faqatgina hisobotlarda aks ettirish uchun nomigagina ekilgan 5 ming tupdan ortiq manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari ko‘karmagan, bundan tashqari ko‘chatlar ekilgan hudud yonib ham ketgan.

Jomboy tumanida tijorat banklari tomonidan temir yo‘l yoqasida ekilgan 2 ming tupdan ortiq terak ko‘chati ham faqat qog‘ozda aks etgan, xolos.

Urgut tumani Quyi Kamangaron mahallasida tuman hokimligi tomonidan barpo qilingan “Hokimlik bog‘i” va “Yashil jamoat parki”dagi, shuningdek, Tinchlik va Rahmatobod mahallalari hududida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ekilgan mingdan ziyod ko‘chatlar ko‘karmagan.

Toyloq tumani G‘o‘lba mahallasi 0,25 gektar maydonda barpo qilingan “Hokimlik bog‘i”da aholi tomonidan chorva mollari boqilganligi sababli ko‘chatlar payhon qilingan, Birlik mahallasida obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan ekilgan 400 tup manzarali daraxtlar qurib qolgan.

Samarqand shahri hududidan o‘tuvchi M-37 avtomobil yo‘li yoqasida sobiq YPX post shtabi ro‘parasida viloyat soliq boshqarmasi tomonidan ekilgan 500 tup archa ko‘chatlari nomigagina ekilganligi va parvarish qilinmaganligi sababli qurib qolgan.

Ishtixon tumani hududidan o‘tuvchi M-37 avtomobil yo‘li yoqasida “Samarqandyo‘lko‘kalam” korxonasi tomonidan ekilgan 200 tup manzarali daraxt ko‘chatlari, Shayxlarkent mahallasida ekilgan 100 tup mevali daraxt ko‘chatlari ham qurib qolgan.

DARAXTLAR KAMAYSA EKOLOGIK FALOKAT BO‘LADIMI?

Dunyoning aksariyat davlatlarida daraxtlar qonun bilan himoyalangan va ularni asrash uchun maxsus tashkilot, jamg‘armalar tashkil etilgan. Lekin bizda yiliga nechta tup daraxt ekiladi, qanchasi parvarishsiz quriydi, kesilgan daraxtlar ko‘proq nimaga ishlatilayotgani to‘g‘risida ma’lumotlar yo‘q. Yuqorida aytilgan muammolarning aksariyati bilan yuzlashyapmiz, bundan ham yomon holat yuzaga kelmasligi uchun ko‘chat ekishni ko‘paytirishimiz va parvarishiga alohida e’tibor qaratishimiz lozim. Ko‘chat ekishni rasmiyatchilikdan an’anaga aylantirib, kelajak avlod uchun ham hozirdan yashil qalqon yaratish bizning vazifamiz.

O‘ktam XUDOYBERDIYEV.
“Zarafshon”ning maxsus muxbiri.

REKLAMA, E’LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e‘lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

OGOH BO‘LING, MAGISTRAL GAZ QUVURLARI!

Magistral gaz quvurlarining muhofaza zonasida xavfsizlik choralarini ko‘rish g‘oyatda muhim. Viloyatimizning Narpay, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon, Oqdaryo, Nurobod, Payariq tumanlari hududi bo‘ylab aholi punktlari va sanoat korxonalarini tabiiy gaz bilan ta’minlovchi, yuqori bosimga ega magistral gaz quvurlari yotqizilganligini hisobga olsak, masala kundek ravshan. Shu sababli hamyurtlarimizni ogohlikka chorlaymiz.



Ekspluatatsiyaning normal sharoitini ta’minlash va quvurlarning shikastlanishiga (ularning har qanday o‘tkazilishidan qat’i nazar) yo‘l qo‘ymaslik uchun O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi “Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash” to‘grisidagi 651-sonli qarori talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “ShMQ-02.05.06/22” - “Magistral gaz quvurlar shaharsozlik normalari va qoidalari”ga asosan muhofaza hududlari belgilangan. Magistral gaz quvurlari tarkibiga gaz quvurlari, gaz taqsimlash shoxobchalari, kran tugunlari, kompressor stansiyalari, elektr kimyoviy himoyalash uskunalari (EXZ), yuqori kuchlanishli elektr uzatish tarmoqlari (LEP), aloqa texnologiyasi inshootlari va uzatkichlari, gaz quvurlari trassasi bo‘ylab yotqizilgan yo‘llar, gaz quvurlarini bildiruvchi va tanituvchi belgilar kiradi.

Quvurlarning muhofaza hududiga kiruvchi maydonlar yerdan foydalanuvchilardan olib qo‘yilmaydi. Ular mazkur maydonda faqat magistral gaz quvurlarini muhofaza qilish qoidalariga qat’iy rioya qilgan holda qishloq xo‘jaligi yoki boshqa turdagi ishlarni olib borishlari mumkin. Quvurlar yotqizilgan hududda turarjoy mavzelari, aholi punktlari, sanoat, qishloq xo‘jaligi korxonalari, imoratlar (turar-joy va noturarjoy binolar) qurilishi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi “Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash” to‘g‘risidagi





651-sonli qarori talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “ShMQ-02.05.06/22” - “Magistral gaz quvurlar shaharsozlik normalari va qoidalari”da tasdiqlangan me’yorlarga ko‘ra, magistral gaz quvurlarni loyixalashtirishning qurilish normalari va qoidalari bo‘yicha gaz quvuridan bino yoxud inshootgacha bo‘lgan eng kam masofaga qat’iy rioya etgan holda amalga oshiriladi.

Quvurlarning muhofaza hududida quvurlardan me’yorida foydalanishga halaqit beruvchi yoki ularga shikast yetkazuvchi har qanday turdagi ishlar taqiqlanadi. Xususan:

- har qanday qurilish ishlarini olib borish, inshootlar tiklash;

- har xil turdagi daraxt va butalarni ekish, yem-xashak, ozuqa, o‘g‘it va materiallarni to‘plash, pichan g‘amlash, ot bog‘laydigan qoziqlarni joylashtirish, chorva mollarini saqlash, baliq yetishtirish uchun uchastkalar ajratish, baliq hamda boshqa suvda yashovchi va suzuvchi hayvonlar va parrandalarni parvarishlash, jonivorlar uchun suv ichadigan hovuzlar qurish, muzni yorish va tayyorlash ishlarini amalga oshirish;

- quvur trassasi ustidan o‘tish va kesib o‘tish inshootlarini qurish, traktor va boshqa mexanizmlar uchun saqlash joylarini barpo etish, jamoat bog‘lari va polizlarini joylashtirish;

- turli xil qurilish-montaj, portlatish va tog‘ ishlarini amalga oshirish, tuproq (grunt) olishni rejalashtirish;

- melioratsiya ishlarini amalga oshirish, sug‘orish, quritish tarmoqlarini qurish;

- nazorat-o‘lchov quduqlari, nazorat punktlari, signal beruvchi, ogohlantiruvchi belgilarni buzish, joylarini o‘zgartirish;

- kabel aloqasi xizmat ko‘rsatmaydigan tovush kuchaytiruvchi punktlar qopqoqlarini, lyuklarni, katod himoyasi stansiyasi, tarmoq va nazorat qiluvchi quduqlar hamda boshqa tarmoq qurilmalarini, zulf va jo‘mraklarni ochish, aloqa vositalari, quvur energiya ta’minoti va telemexanikasini yoqish, o‘chirish;

- belgilangan hududda turli xil chiqindi to‘plamlarini yig‘ish, yerga ishqorlar, tuzlar, kislota eritmalarini to‘kish;

- quvurlarni buzilishlardan, yon-atrof va yaqin joylashgan hududni, transportirovka qilinadigan mahsulotni avariya natijasida to‘kilishdan saqlovchi, yer osti suvini o‘tkazuvchi inshootlarni, qirg‘oqlarni mustahkam tutuvchi qurilmalarni buzish;

- olov yoqish yoki shunga o‘xshash ochiq-yopiq olov manbalarini uyushtirish;

- himoya hududlarida sun’iy havzalar va sholi ekinlarini ekish man etiladi.

Magistral gaz quvurlari himoya qoidalarining buzilishida aybdor mansabdor shaxslar va fuqarolar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra javobgarlikka tortiladi.

Muhofaza hududi:

- quvur trassasi bo‘ylab xavfsizlik yer uchastkasi ko‘rinishida, quvur o‘qining har tomonidan 50 metrgacha masofada shartli chiziqlar bilan chegaralangan bo‘ladi;

- qishloq xo‘jaligiga taalluqli yerlardan himoya maydoni quvur o‘qining har tomonidan 25 metr masofada o‘tadigan shartli chiziqlar bilan chegaralanadi;

- ko‘p tarmoqli trassa bo‘ylab chekka quvur o‘qining har tomonidan 50 metr masofada o‘tgan, shartli chiziqlar bilan chegaralangan yer maydoni ko‘rinishidadir.

Gazdan kondensatni ajratish va saqlash uchun sig‘imlar atrofida neft, kondensat va siqilgan uglevodorodlarni avariya holatida chiqarish uchun yer omborida ko‘rsatilgan obyektlar maydoni chegarasida har tomoniga 50 metrdan tutashgan chiziq bilan chegaralangan uchastka ko‘rinishida bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 9-dekabrdagi “Magistral gaz quvurlari qoidalarini tasdiqlash” to‘grisidagi 651-sonli qarori talablari hamda O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlangan “ShMQ-02.05.06/22” - “Magistral gaz quvurlar shaharsozlik normalari va qoidalari”ga asosan magistral gaz tarmoqlari atrofida quvurlar diametriga mos holda muhofaza hududlari belgilangan.

Belgilangan xavfli hudud radiusi:

- diametri 300 mm.gacha bo‘lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga 100 metr;

- diametri 300 mm.dan 600 mm.gacha bo‘lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga 150 metr;

- diametri 600 mm.dan 800 mm.gacha bo‘lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga 200 metr;

- diametri 800 mm.dan 1000 mm.gacha bo‘lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga 250 metr;

- diametri 1000 mm.dan 1200 mm.gacha bo‘lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga 300 metr;

- diametri 1200 mm.dan yuqori bo‘lgan gaz quvuri uchun muhofaza hududi quvur o‘qidan har ikki tarafga 350 metrni tashkil etadi.

Shuningdek, gaz taqsimlash shoxobchalari har tomondan himoya hududi (muhofaza hududida har qanday ishlarni olib borish taqiqlanadi) 150 metr qilib belgilangan.

Shuning bilan birgalikda, aholi e’tiborini qo‘yidagilarga qaratmoqchimiz:

Davlatimizda olib borilayotgan insonparvarlik siyosatiga ko‘ra, aholi tomonidan tegishli mahalliy hokimiyatlar ruxsatisiz qurilib, hozirda aholi istiqomat qilib kelayotgan ayrim uy-joylar ham tegishli hujjatlar orqali egalariga mulk sifatida rasmiylashtirilib berilmoqda. Lekin magistral gaz quvurlarining xavfli hududida, boshqacha aytganda, “Qizil hudud” ichida qurilgan noqonuniy imoratlar uchun bu yengilliklar tatbiq etilmaydi va bunday imoratlar buzib tashlanishi kerak bo‘ladi.

Aziz hamyurtlarimizning yer uchastkalari yoki dehqonchilik qilayotgan yer maydonlari magistral gaz quvurlari yaqinida joylashgan bo‘lsa, biror turdagi qurilish ishlarini boshlashdan oldin ushbu gaz quvurlariga xizmat ko‘rsatuvchi boshqarmaga murojaat qilib, ish ko‘rish tavsiya etiladi. Bu bilan fuqarolarimiz o‘zboshimchalik bilan qurilgan noqonuniy imoratni buzilishi bilan bog‘liq ortiqcha asabbuzarlik va keraksiz moddiy chiqimlardan xoli bo‘lishadi.

Boshqarmamiz manzili: Narpay tumani Oqtosh shahri, Muqimiy mahallasi.
Telefonlar: +99866-432-41-91, +99893-172-22-47.

Qahramon FAYZULLAEV,
“Zirabuloq magistral gaz quvurlari” boshqarmasi boshlig‘i.
Iskandar SHUKUROV,
Sanoat xavfsizligi davlat qo‘mitasi Samarqand hududiy boshqarmasi bosh mutaxassisi.

MINNATDORMAN!

Samarqand shahar 1-son FXDYO bo‘limi mudirasi Inobat Boboqulovani uzoq yillardan beri taniyman. Sohadagi ko‘p yillik tajribasi, samimiyligi va fidoyiligi bilan xalq orasida hurmat qozongan. Qabuliga kelgan har bir fuqarodan o‘zining maslahati, yordamini ayamaydi. Ayniqsa shirin muomala va kattayu kichikka bo‘lgan hurmati menda katta taassurot qoldiradi. O‘z kasbining ustasi Inobat Boboqulovaga sihat-salomatlik, oilaviy baxt tilayman.

Mumina GULAMOVA,
Samarqand shahri.

* * *

DA’VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasida marhum Atamuradov Djurakul Pardayevichga (2021-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Qurbonov Rustam Rahimqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Buyuk Ipak yo‘li ko‘chasi, 41/100-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Ubaydullayev Axrorga (2011-yil 29-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Jo‘rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O‘zbekiston ko‘chasi, 35-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasida marhum Ashrapov Saidmamatga (2024-yil 20-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Bobomurodov Pirmamat Isomiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko‘chasi, 12-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Babayan Oleg Robertovichga (2024-yil 15-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Abduxalilov Norkulga (2005-yil 26-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasida marhum Adilov Muxtarga (1985-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Aliyeva Lola Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko‘chasi, 158-uy.

* * *

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasida marhum Tashpulatov Erkin Rabbimovichga (2023-yil 29-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko‘chasi, 80-uy.

* * *

BEKOR QILINADI

Past Darg‘om tumanidagi “SAMARQAND KAMALAK INVEST TEKSTIL” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 302831049) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

Samarqand shahridagi “G-SEVA-R” mas’uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 311151051) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

* * *

TOPGANGA MUKOFOT!


Past Darg‘om tumanidagi «TEMIR QALQON» mas’uliyati cheklangan jamiyatiga tegishli davlat raqami 30 KA 195 bo‘lgan “YTO-C1402” rusumli buldozerning texnik pasporti Past Darg‘om tumani hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so‘raymiz.

Telefon: +99899-958-74-44.

Millat fidoyilari

OLIM, SHOIR VA XATTOT

Mirzo Umrboqiy haqida birinchi marta Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” (Mirzo Salimbek Salimiy tomonidan 1914-yilda chop etilgan) tazkirasida va keyinchalik “Taronahoi Samarqand” (1965-yil) kitobida ma’lumotlar keltirilgan. Nosir Muhammadning “Nasaf va Kesh allomalari” (2006-yil) tazkirasida hamda Ne’mat Arslonning adib hayot yo‘li, oilasi va qatag‘onlar girdobida kechgan umri haqida hikoya qiluvchi “Iztirob farzandi” (2009-yil) nomli hujjatli qissalari ham Mirzo Umrboqiyning hayotini o‘rganishda dastlabki manbalar hisoblanadi. Shuningdek, o‘sha davr matbuoti sahifalarida uning ba’zi she’rlari chop etilgan.



Mirzo Umrboqiy yigirma yil umrguzaronlik qilgan Samarqand shahridagi Abulays Samarqandiy mahallasidagi fayzli hovlida bugungi kunda u kishining nabirasi Jaloliddin aka yashab kelmoqda. Mirzo Umrboqiyning qo‘lyozma kitoblari davr to‘fonlariyu, qatag‘on shamollariga qaramay, suyukli farzandi Salohiddin maxsum tomonidan saqlab kelingan. Bizga bobolarining qo‘lyozma asarlari (fotonusxasi) ni taqdim etib, beminnat yordam ko‘rsatganliklari uchun Jaloliddin akaga minnatdorchiligimni bildiraman.

Mirzo Umrboqiy 1878-yil Shahrisabz shahrida tug‘ilgan. Otasi mulla Avazmurod tijorat ishlari bilan shug‘ullangan. U kishi ilmli, ma’naviyatli inson bo‘lib, o‘z davrining olimu ijodkorlari davrasida, muloqotlarida ishtirok etar, ilm ahliga ixlosi baland kishilardan edi. Zehni o‘tkir va xotirasi kuchli Umrboqiyni ham tez-tez bunday yig‘ilishlarga olib borardi. Mulla Avazmurod o‘g‘lining ta’limi bilan dastlab o‘zi shug‘ullanadi, keyinroq Shahrisabzning ko‘zga ko‘ringan kishilaridan mulla Safoiyga shogirdlikka beradi. Umrboqiy sho‘x, lekin zehni o‘tkir, bilimli va husnixati chiroyli bo‘lib tarbiya topadi. Mumtoz she’riyatning zabardast namoyandalaridan Hofiz, Bedil, Attor, Sa’diy, Navoiy, Fuzuliy ijodini o‘rganadi. O‘z davrining Mulla Qurbon Xiromiy, Farah Shahrisabziy, Abdulla Rahmon Gulshaniy, Fayzullaxo‘ja Ravnaqiy singari ijod ahli davralarida mahoratini oshirib boradi.

Ilm-ma’rifatni va kitobni sevgan Umrboqiy tahsilni Buxoro madrasasida davom ettiradi. Madrasa tahsili tugagach, Shahrisabzga qaytadi. Afsuski, bu orada otasi vafot etadi. Umrboqiy ota kasbi savdogarlik bilan birga o‘zi yaxshi ko‘rgan xattotlik bilan shug‘ullana boshlaydi. G‘azallari bilan ustozlar nazariga tushib, e’tirofga sazovor bo‘lib boradi. Yosh iqtidor sohibining ijod namunalari 1914-yil Qori Rahmatulloh Vozehning “Tuhfat ul-ahbob fi tazkirat ul-ashob” tazkirasiga kiritiladi. Bu uning shoir sifatida ustozlar va o‘z davri ijodkorlari tomonidan e’tirof etilishi edi, albatta.

Husnixat sohibi bo‘lgan Umrboqiy Oqsaroydagi hokim mirzaxonasiga mirzolikka, keyinroq bosh mirzolikka tayinlanadi. Biroq ko‘p vaqt o‘tmay, bu osuda hayotga barham beriladi. 1918-yil voqealari boshlanadi. Mirzo Umrboqiy yangi davlat boshqaruv idorasiga mas’ul kotib qilib xizmatga olinadi. Ikki yil shu lavozimda ishlagach, partiya safiga kirishi yoki ishdan ketishi talab qilinadi. Mirzo Umrboqiy keyingisini tanlaydi... Endi u sho‘ro hukumatining “dushman”iga aylangan va mamlakatni egallab olgan sovet hukumati tazyiqidan qochib, darbadarlik va xorlikda kun kechirishga majbur edi. Shahrisabzda vaziyat nihoyatda xavfli bo‘lib qolgach, Buxoro madrasasida birga o‘qigan saboqdosh do‘stini qora qilib, Shahrisabzdan piyoda, och-nahor Samarqanddagi Payshanba qishlog‘iga boradi. Afsuski, unga do‘stining Samarqandga ko‘chib ketganini aytishadi. Umrboqiy o‘zi va oilasi uchun o‘zga shaharlardan panoh istab yurgan bu vaqtda uni qamoqqa olishga kelgan sho‘ro hukumati vakillari katta o‘g‘li - 13 yoshli Salohiddinni o‘zlari bilan olib ketishadi. O‘spirin bola otasining o‘rnida 70 kun qamoqda saqlanadi, keyin ba’zi aqli raso kishilarning maslahati bilan yosh Salohiddin Toshkentga maktub yozadi va shundan keyin ozod qilinadi.

1929-yil Umrboqiy yashirin ravishda xat orqali oilasini Kattaqo‘rg‘on shahridagi ijaraga olgan uyiga chaqirtiradi. Lekin endigina jam bo‘lgan oilaning oromi uzoqqa cho‘zilmadi. Bir hafta ichida oilaning ikki farzandi - to‘qqiz yoshli Robiya va 11 yoshli Nizomiddin bezgak tufayli dunyodan bevaqt ko‘z yumadi. To‘ng‘ich farzand Salohiddin uzoq vaqt og‘rib, qiyinchilik bilan oyoqqa turadi...

Bu kulfatu hasratlar hali yuragidan ketmay, qattol hukumatning ta’qibi Kattaqo‘rg‘onga yetib boradi. Mirzo Umrboqiy yana darbadarlikda, o‘zi, turmush o‘rtog‘i va yolg‘iz farzandi Salohiddin bilan Chaqar qishlog‘iga boradi. Qishloq imomi qarib qolgani sabab bilimdon va so‘zamol Umrboqiyni o‘z o‘rniga qishloq masjidi imomligiga o‘tkazadi. Oila yetti yil shu qishloqda tinchlik-xotirjamlikda yashaydi. Biroq ma’rifat egalari, ziyolilar, taniqli shaxslar, mulla, imom va boy-badavlat kishilarni qamoqqa olish, nohaq qatl etish davri – 1937-yilgi ommaviy qatag‘on boshlanadi. NKVD xodimlari Mirzo Umrboqiyni ham qo‘liga kishan solib olib ketishadi. Ko‘p o‘tmay, uni ozod qilishadi, lekin u endi bu yerda qololmas edi. U Samarqand shahriga yo‘l oladi. Bu yerda bir necha yil ijarama-ijara ko‘chib yurgach, nihoyat Faqih Abulays mahallasidan uy sotib olib, shu hovlida muqim yashay boshlaydi, oilasida yana farzand dunyoga keladi. Mirzo Umrboqiy tabiblik qiladi, kasal-bemorlarni davolaydi, o‘qib, dam solib qo‘yadi. Ammo qarib qolgan adibga nisbatan hukumat ta’qibi yillar mobaynida to‘xtamadi. 1949-yilda chaquv sabab 70 yoshga yaqinlashib qolgan Umrboqiy xonadonida hukumat xodimlari yana tintuv o‘tkazishadi. Kitoblari va qo‘lyozmalarini yerto‘lada, ko‘mirlar ostida saqlagani uchun topisholmaydi. Shunday bo‘lsa ham uni olib ketishadi va o‘n besh kun saqlab, qamash uchun arzirli sabab topisholmagach, qo‘yib yuborishadi.

Mirzo Umrboqiy 1957-yilning 23-sentabrida Samarqand shahrida vafot etadi. Qabri Shohi Zinda qabristonida.

Mirzo Umrboqiy adabiy merosi katta hajmdagi bitta kitobga jamlangan. Qo‘lyozma manbaning bo‘yi 25 santimetr, eni 15 santimetr, qalinligi 7 santimetr. Manbaning asosiy matnlaridan tashqari to‘rt tomonida 3 santimetrdan bo‘sh joy – hoshiya qoldirilgan. Matnlar silliq, yupqa Samarqand qog‘ozida muallifning nihoyatda chiroyli xati bilan yozilgan. Xat turi – nasta’liq. Kitob ustki jildida uchta muhr bor. Ushbu kitob muallifning o‘zi tomonidan kitobat qilingan deyish mumkin. Chunki davrining taniqli xattotlaridan bo‘lgan Umrboqiyning o‘zi kitobat qilish san’atidan xabardor bo‘lgan, albatta. Bundan tashqari, zamon o‘ta xavfli bo‘lgani sabab qo‘lyozmalarini birovga ishonib topshirib kitobat qildirishi ehtimoldan uzoq ko‘rinadi.

Qo‘lyozma manba bir nechta mustaqil asarlarni o‘z ichiga olgan bo‘lib, lirik she’rlar – g‘azal, marsiya, ta’rix, muxammas, ruboiylar, shuningdek, tariqatga, tabobatga, musiqaga oid maxsus asarlardan iborat.

Mirzo Umrboqiy Shahrisabzda yashagan yillaridanoq o‘z davri ilmiy-ijodiy muhitining ko‘zga ko‘ringan vakillaridan bo‘lgan. Bundan tashqari, Shahrisabz xalqi orasida obro‘li, yurtparvar, xalqparvar shaxs bo‘lib tanilgan edi. Adibning Samarqand tuprog‘ida o‘tgan umri ham garchi, quvg‘in va muhtojlik, tahlika va xavotir ostida kechgan bo‘lsa-da, ijod borasida samarali bo‘lgan. Aytish mumkinki, adib ilmiy-adabiy merosi mintaqadagi ikki qaynoq va bir-biriga uyg‘un adabiy markazlar – Shahrisabz va Samarqand adabiy muhiti an’analarini o‘zida mujassam etgan ijod namunalaridir.

Mirzo Umrboqiy umrining oxirigacha o‘z yurti Shahrisabzni qo‘msab yashagan bo‘lsa-da, Samarqand tuprog‘ida o‘tgan 20-21 yillik hayoti ham bu yerdagi adabiy harakatchilik vakillari, ilmiy-ijodiy muhit unga begona emas edi. Samarqandlik taniqli ijodkorlar Orif Gulxaniy, Javdat, Tamhid, Jome’, Sadriddin Ayniylar, Shahrisabzdan Fayzulla Xo‘jayev – Ravnaqiy, Abdulla Gulshaniy, Ismoilxon, Najmiddinxon, Abbosxon va boshqa ijodkorlar bu xonadonga tez-tez tashrif buyurishar, o‘zaro ijodiy suhbatlar bo‘lib o‘tardi.

Mirzo Umrboqiy badiiy ijod namunalarini “Boqiy” taxallusi bilan qog‘ozga tushirgan. Boqiy qo‘lyozmalari bilan tanishish jarayonida adibning adabiy-ilmiy, badiiy ijodi ancha sermahsul ekaniga guvoh bo‘ldik. Barkamol shaxs, yirik olim va xushxat xattot Mirzo Umrboqiy asarlari XX asr o‘zbek adabiyotini o‘ziga xos qimmatli asarlari bilan boyitadi, 70-75 yillik sho‘rolar hukumati davrida o‘zbek mumtoz adabiyoti an’analari bardavomligini ta’minlashda muhim halqa bo‘lib xizmat qiladi. Boqiy adabiy merosini joriy yozuvga o‘girish, jamoatchilik hukmiga havola etish hamda ilmiy, badiiy-estetik, tarixiy qimmatini aniqlash, davr adabiyoti rivojida tutgan o‘rni va ahamiyatini belgilash navbatdagi vazifalardandir.

Zebiniso XURRAMOVA,
SamDChTI qiyosiy adabiyotshunoslik kafedrasi o‘qituvchisi, dotsent.

Mulohaza uchun mavzu

Gazetachilikda "Farrosh mehnatini qadrlang" degan ibora bor. Obodonchilik, saranjom-sarishtalik haqida gap ketsa, albatta, shu iborani ishlatamiz, hatto uni sarlavhaga ham qo‘yamiz. Lekin keling, bir o‘ylab ko‘raylik. Biz farrosh mehnatini qadrlash uchun atrofimizni toza, saranjom tutamizmi? Aslida u har birimizning ichki madaniyatimiz hosilasi emasmi?

Farroshni emas, o‘zingizni qadrlang

Shahar bo‘ylab yurganimda ko‘cha supurayotgan, gulzor parvarishlayotgan, farroshlar – obodonchilik idorasi xodimlari ishini kuzataman. Ularning soni ilgarigidan ancha ko‘paydi. Kiyinishi, bajarayotgan ishlari ham yangicha. Shu sababli Samarqanddagi asosiy ko‘chalarda sarishtalik hukmron.

- Daraxt bargining to‘kilishi yoki asfaltga chang tushishi bu tabiiy hol, - deydi farroshlardan biri. - Ammo erta tongda yo‘l chetidagi ariqlarda bo‘shagan "baklajka"lar, muzqaymoq va boshqa taomlar idishlarini ko‘rib, dilim xufton bo‘ladi. Bilasizmi, ba’zan ishlab turgan paytimiz mashina derazasidan ayrimlar qog‘oz yoki qutilarni tashlab o‘tishadi. Gapirishga ulgurolmay qolamiz. Qolaversa, duppa-durust odamlar.

"Mabodo gapirsangiz, bundaylarga nima degan bo‘lardingiz?", so‘rayman u kishidan. "Nima ham derdim, biz-ku mayli-ya, hech bo‘lmasa o‘zingizni hurmat qiling, mashinada yoningizda ketayotgan, bola-chaqangizni hurmat qiling, hurmatli farosatsiz, degan bo‘lardim".

Ko‘p gapiryapmiz-u lekin bu odatga barham bera olmayapmiz. Yaqinda o‘zim shunday voqeaga guvoh bo‘ldim. Taksida ketayotgan edik, 35 yoshlardagi tuzukkina ayol yonida ketayotgan bolakay qo‘lidagi bo‘shagan yelim xaltachani olib,



mashina derazasidan ko‘chaga otdi. Tabiiyki, e’tiroz bildirdim: "Opa, mashinadan tushgandan keyin maxsus qutilardan biriga tashlardingiz-ku". Ayol pinagini ham buzmadi. Aksincha, "Ana, farroshlar nima qiladi, tozalaydi-da, bizdan olingan soliqlardan maosh beryapti ularga", dedi.

Xorijlik, ayniqsa, Xitoy, Yaponiya, Koreyadan kelgan mehmonlar qayerga borsa, joylarini yig‘ishtirib, hatto bo‘shagan suv idishlarigacha o‘zlari bilan olib, ibrat ko‘rsatyapti. Aniqrog‘i, bizni uyaltirishyapti. Lekin biz o‘zgarmayapmiz. Buning ustiga farzandlarimiz oldida shu ishlarni qilamiz. Axir ular bizdan qanday ibrat olsin?

Albatta, har bir kasb egasining mehnatini qadrlashimiz kerak, farroshning ham. Lekin pokizalik, ichki intizom, har bir fuqaroning burchi, qonuniy burchi, buni unutmaylik. Insonning qadr-qimmati ham uning toza-ozoda yurishiga, atrofga, tabiatga ziyon keltirmasligi, aksincha, o‘zi yashab turgan maskanni obod qilishi bilan o‘lchanadi. Ana shu qadrimizni pastga urmaylik.

Bahora MUHAMMADIYEVA.

Keyingi yillarda yurtimizda ham "kompyuterga qaramlik" degan ibora ishlatila boshladi. Xitoy, AQSh va Yevropaning ba’zi mamlakatlarida 2015-yilgi voqeadan keyin bu qaramlikka jiddiy qarab, uni kasallik sifatida davolash yo‘lga qo‘yilgan. O‘shanda bir maktab o‘quvchisi kompyuter o‘yiniga mukkasidan ketganligi sababli vafot etgandi.

Kompyuter o‘yinlari bola rivojlanishini kechiktiradi



Bugun qo‘l telefoni ham kompyuterlar o‘rnini bosadi. Tartib va me’yorga amal qilinmasa, ular kompyuterdan-da zararli bo‘lishi mumkin. Afsus, ba’zi ota-onalar buni tushunmaydi va farzandini o‘z qo‘li bilan qaramlik sari yetaklaydi.

Aytish joizki, kompyuter o‘yinlari bolani rivojlantirmaydi. Amerika pediatriya uyushmasining ta’kidlashicha, kompyuter o‘yinlari va mobil gadjetlar bu jarayonni aksincha, sekinlashtiradi. Bolani muloqot, suhbat, qo‘li bilan ushlash, his etish, eshitish, ko‘rish kabi tuyg‘ular rivojlantiradi. Bu davrda u ko‘proq vaqtini virtual emas, balki moddiy hayotni o‘rganish, tengqurlari orasida o‘tkazishi kerak.

Shuningdek tadqiqotlar 10-12 yoshgacha bo‘lgan bolalarning kompyuterda ko‘p o‘tirishi unda asab tizimi buzilishiga olib kelishini ko‘rsatmoqda. Bu uning charchashi, boshi og‘rishi, uyqusining buzilishi, kayfiyatining tushishi yoki o‘ta passivligi, xayoli parishonligi kabi belgilar orqali namoyon bo‘ladi. Oqibatda ular jamiyatga moslasha olmaydi, oddiy muloqot ham ular uchun murakkab ishdek tuyuladi.

Albatta, bugungi zamonda bolani mobil gadjet yoki kompyuterdan butunlay ayirib qo‘yishning imkoni yo‘q. Ayni vositalar kundalik hayotimiz, o‘qish, ish, turmushimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Shunday ekan, undan to‘g‘ri foydalanishimiz va farzandlarimizga ham shuni o‘rgatishimiz zarur. Virtual olamning bolaga salbiy ta’sirini minimallashtirish uchun esa ayrim jihatlariga amal qilish kerak.

Avvalo, bola maktabga chiqmagunicha kompyuterdan umuman foydalanmasligi zarur. Xonadoningizda kompyuter bo‘lsa, unda o‘yin saqlamang. Albatta, til o‘rgatuvchi yoki bilim beruvchi o‘yinlar bundan mustasno. Maktab yoshida ham bolaning kompyuterdan foydalanish vaqti chegaralangan bo‘lishi lozim. Xususan, 10-12 yoshgacha kuniga 1 soatdan oshmasligi, 12-16 yoshda 2-3 soatni tashkil qilishi mumkin.

Tegishli qurilmalar internet tarmog‘iga ulangan bo‘lsa, ayrim saytlarga blokator o‘rnatish yodingizdan chiqmasin. Internetda bolaning dunyoqarishini buzadigan minglab saytlar mavjud va u mazkur saytlarga o‘zi bilmagan holda kirib qolishi mumkin. Va, eng asosiysi, o‘zingiz kompyuter o‘yinlarini o‘ynab, turli saytlarga kirib, namuna ko‘rsatmang. Aksincha, bola bilan birga foydali sayt va dasturlarda ishlang, uning ijobiy jihatlarini ko‘rsating.

Aziza RAHMONOVA,
Samarqand shahar bolalar shifoxonasi shifokori, oliy toifali fizioterapevt.

Yaxshi so‘z qahat bo‘ldimi?

Bugun tibbiyot zamonaviylashyapti, tibbiyot muassasalari binolari, jihozlari yangilanyapti. Bularning hammasi yaxshi. Lekini bor-da.

Ilgari oddiygina qishloq vrachlik punktiga yoki tuman poliklinikasiga shifokor ko‘rigiga borsak, shifokorlar yaxshi muomala qilardi. Shu muomaladan o‘zimizni ancha yengil his qilardik. Kasalini o‘tkazib yuborganlar yaxshigina dakki eshitardi. Lekin shu dakkilarda ham mehr bo‘lardi.

Hozir shifokorlarning ishi ko‘pmi yo odam ko‘payganmi, bemorga sovuqqina muomala qilib, retsept yozib beradi, xolos. Lekin bemor uchun shifokor, hamshiralarning shirin so‘zi ham muolajasidan ko‘proq naf beradi. To‘g‘ri, shifoxonalarda navbatda turganimizda bemorlarning ham asabiy bo‘lib qolgani, shifokorlar bilan muomalasi o‘zgarganini kuzatamiz. Balki qars ikki qo‘ldan chiqar? Lekin o‘sha asabiy kishilarga ham yaxshi so‘z bilan tushuntirilsa, o‘ylaymanki, bemorlarning soni kamayadi.

Turdi TURSUNOV,
Payariq tumani.

MATBUOT UYI
Zarafshon
Самаркандский вестник

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 11 661 nusxada chop etildi. Buyurtma 572. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E’LONLAR: (66) 233-91-56
BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.
Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir: A.SHERXOLOV.
Navbatchi: X.ERNAZAROVA.
Sahifalovchi: B.ABDULLAYEV.

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X

Sotuvda narxi kelishilgan holda